



O'ZBEK TILIDAGI AYRIM ZOONIM FRAZEOLOGIZMLARNING KORPUS
MODELLARIDA IZOHLANISHI

Tursunboyeva Zubayda Hamza qizi

Qoraqalpog' davlat universiteti 3-kurs talabasi. E-mail: zubaydatursunboyeva@gmail.com

Abdullayev Oxunjon Ikrom o'g'li

Qoraqalpog' davlat universiteti, f.f.d., (PhD). E-mail: a_oxunjon@karsu.uz

Annonatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida frazeologiya va zoonim iboralarni TK (Til korpusi) modellarida izohlanishiga bag'ishlangan. Ular turg'un so'z birikmalari bo'lib, hayvonlar va qushlar nomlari orqali inson xarakteri va ruhiy holatini ko'chma ma'noda ifodalaydi. Matnda iboralar misollar bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, turg'un birikma, til ko'rpusi, ibora, zoonim ibora.

Annotation: This article is devoted to the interpretation of phraseology and zoonymic expressions in Uzbek linguistics in TC (Language Corpus) models. They are fixed phrases, figuratively expressing the character and mental state of a person through the names of animals and birds. In the text, the phrases are explained with examples.

Keywords: phraseology, fixed expression, language corpus, phrase, zoonym phrase.

Аннотация: Данная статья посвящена интерпретации фразеологии и зоонимических выражений в узбекском языкознании в моделях ТК (языкового корпуса). Это устойчивые словосочетания, которые выражают характер и психическое состояние человека в переносном смысле через названия животных и птиц. В тексте выражения поясняются примерами.

Ключевые слова: фразеология, устойчивое словосочетание, языковой корпус, выражение, зоонимическое выражение.

KIRISH

O'zbek tilshunosligining eng qiziqarli bo'limlaridan biri bu frazeologiya hisoblanadi. Frazeologiya – tilshunoslikning turg'un so'z birikmalari, ya'ni iboralarni o'rganadigan bo'limidir. Ushbu atama yunoncha "phrasis" (ibora, ifoda) va "logos" (ta'limot) so'zlaridan tashkil topgan. Frazeologiyani asosiy tadqiqot obyekti frazeologizmlar, ya'ni turg'un so'z birikmalaridir.

Frazeologizmlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Tarkibining o'zgarmasligi, ya'ni ibora tarkibidagi so'zlarning o'rnini almashtirib yoki boshqa so'zlar bilan almashtirib bo'lmazligi;

Ko'chma ma'noliligi, bunda iboraning umumiy ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning alohida ma'nolaridan kelib chiqmasligi;

Tilda tayyor holda qo'llanilishi, ya'ni frazeologik birliklarning nutqda so'zlar kabi tayyor holatda ishlatilishidir.

Frazeologiyani o'rganish, asosan, XX asrning 40-yillarida rus tilshunosligida A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shaxmatov, Y.D.Polivanov kabi olimlar faoliyati bilan



bog'liq holda boshlangan. O'zbek tilshunosligida esa XX asrning 50-yillaridan boshlab Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, M.Sodiqova kabi olimlar frazeologizmlarni tadqiq etib, frazeologik lug'atlar tuzganlar hamda ularning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar.

Frazeologiyani o'rgangan asosiy tilshunoslar quyidagilar:

Rus tilshunosligida – A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shaxmatov, Y.D.Polivanov, S. Abakumov, L.A.Bulaxovskiy; O'zbek tilshunosligida – Shavkat Rahmatullayev, Bahodir Yo'ldoshev, Abduvahob Mamatov, Ma'rifat Sodiqova.

Ushbu olimlar frazeologizmlarning barqaror birikma sifatidagi xususiyatlari, shuningdek, ularning omonimiya, sinonimiya va antonimiya kabi semantik munosabatlarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Masalan, Akademik Sh. Rahmatullayev tasnifiga ko'ra ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

Frazeologik chatishmalar (ma'nosi tarkibidagi so'zlardan mutlaqo yiroq, masalan: qovun tushirmoq).

Frazeologik birliklar (ma'nosi obrazli, lekin so'zlar orasidagi mantiq seziladi, masalan: og'zi qulog'ida).

Frazeologik birikmalar (tarkibidagi bir so'z o'z ma'nosida qoladi, masalan: ishqibozlik qilmoq).

Ushbu frazeologiya bo'limidan biz "Zoonim iboralar"ni chuqurroq o'rganamiz.

Asosiy qism. Zoonim iboralar – tarkibida hayvonlar, qushlar, hasharotlar nomlari ishtirok etgan frazeologik birikmalar bo'lib, ular inson xarakteri, his-tuyg'ulari, jismoniy yoki ruhiy holatini ko'chma ma'noda ifodalaydi. Bu iboralar tildagi boy madaniy va milliy xususiyatlarni ko'rsatib, nutqni emotsional va ta'sirchan qiladi. Zoonimlarni shunchaki hayvon nomi ishtirok etgan birikma emas, balki "Zoonimik metafora" deb atasak ham bo'ladi. Masalan: "It- mushuk" (dushman), "itdek yashamoq" (qiyinchilik).

O'zbek tilida zoonimik iboralarida hayvonlar obrazini 3 ta asosiy guruhga bo'lib tahlil qilishimiz mumkin:

Uy hayvonlari ishtirokidagi iboralar: (Ot, tuya, eshak, it, qo'y, mol). Bular ko'pincha mehnat, uy-ro'zg'or va ijtimoiy holatni ifodalaydi.

Masalan: "Otini qamchilamoq" (harakatni tezlatmoq), "Tuyaning dumi yerga tekanda" (hech qachon).

Yovvoyi hayvonlar ishtirokidagi iboralar: (Bo'ri, tulki, ayiq, sher, qoplon). Bular inson xarakteridagi kuch, makkorlik yoki yovuzlikni ifodalaydi. Masalan: "Bo'ri bilan birga uvlamoq" (moslashmoq), "Sherning panjasiga tushmoq".

Qushlar va hasharotlar: (Burgut, chumoli, ari, pashsha). Masalan: "Chumolining uyasiga cho'p suqmoq" (tinchni buzmoq), "Pashshadan fil yasamoq" (bo'rttirmoq).

Yuqoridagi nazariy ma'lumotlarga asoslangan holda quyidagi misollar tahlil qilindi:

1. Tinch turgan jamoani buzib, arining iniga cho'p tiqqani uchun hamma undan norozi bo'ldi. "Arining iniga cho'p tiqqoq" – bu ibora ko'chma ma'noli ifoda hisoblanadi. Izohi quyidagicha: O'zi uchun keraksiz muammo orttirish; Xavfli ishga behuda aralashish, Tinch turgan joyini buzib, baloga qolish degani; Bunday insonlar atrofidagi insonlarga ham yoqmaydi.



2. U beparvoligi sabab eshigiga qo'ngan baxt qushini o'z qo'li bilan uchirib yubordi.

"Baxt qushini uchirib yubormoq" – bu ko'chma ma'noli ifoda hisoblanadi. Izohi quyidagicha: O'ziga Berilgan imkoniyatni qo'ldan boy bermoq; Baxtli fursatni qadrlamaslik; Noto'g'ri qaror yoki beparvolik sabab omadni yo'qotish degan ma'nolarni anglatadi.

3. U hozir shunaqa ahvoldaki, itdan bir suyak qarz bo'lib qoldi.

"Itidan bir suyak qarz bo'lmoq" – bu ko'chma ma'noli ifoda. Izohi quyidagicha: Juda qashshoq bo'lish; Hech narsasi yo'q, nihoyatda muhtoj ahvolda qolish; Eng oddiy ehtiyojni ham qondira olmaydigan darajada kambag'al bo'lish degan ma'nolarni anglatadi.

4. Siz padari buzruk, volidayi mehriboningizning yakka-yu yagona ko'z qorachig'isiz. Sizning mushugingizni "pisht" deb bo'larmidi?! S.Anorboyev. Yo'llanma bilan.

"Mushugiga pisht demaslik" – bu ko'chma ma'noli ifoda hisoblanadi. Izohi quyidagicha: Kimnidir xafa qilmaslik, ozor bermaslik; Zaif kishini ranjitaslik.

5. Gavhar yaxshi qiz. Lekin anavi iblis burganing dumini ko'rgan! O'. Hoshimov. Qalbingga quloq sol. "Burganing dumini ko'rgan" – bu ko'chma ma'noli ifoda hisoblanadi. Izohi quyidagicha: Juda ham ayyor, shum bo'lmoq.

6. "Mening bir amakim bor. Yoshi yetmish oltida shekilli" dedi Bektemir. Jonlanib, e'tiroz bilan... "Ha, u chol tuyani tuzlamasdan yutadiganlardan ..."

-Dedi Asqar polvon. Oybek. Quyosh qoraymas. "Tuyani tuzalmasdan yutmoq" – bu ko'chma ma'noli ifoda hisoblanadi. Izohi quyidagicha: Har qanday ishni udda qila olmoq, uddaburonlik bilan ish qilmoq.

7. Pichoqni shu Hasan akang uradimi?! Chumchuq «pir» etsa, yuragi «shir» etadi-yu buning! (H.H.Niyoziy. Boy ila xizmatchi.) "Chumchuq «pir» etsa, yuragi «shir» etmoq" – bu ko'chma ma'noli ifoda hisoblanadi. Izohi quyidagicha: O'taketgan qo'rqqoq. Sinonim: Chumchuq yurak

8. Eshon tuni bilan uxlamay Qur'on o'qiydi. Nega o'qiydi? To'raxo'jaboyning alamidani kuyib to'ng'iz qo'pganigami? Yo'q. Joni notinch, uyqusi kelmaganidan o'qiydi. P.Tursun O'qituvchi. "To'ng'iz qopmoq" – bu ko'chma ma'noli ifoda hisoblanadi. Izohi quyidagicha: Ruhan kuyib o'lar holga kelmoq.

9. "... Bizga o'xshagan otning qashqalariga kun yo'q edi..." –

"Otning qashqasi yoki qashqasiday" – bu ko'chma ma'noli ifoda hisoblanadi. Izohi quyidagicha: O'ta darajada taniqli inson.

10. Qush uchsa – qanoti, odam yursa – oyog'i kuyadi bizning qirlarda. S.Abdugahhor. Hayotning boshlanishi. Oldimda katta bir cho'li azim paydo bo'lgan edi, qush uchsa – qanoti, Odam yursa – oyog'i kuyadigan bu Cho'lda yelkamda boyagi yuklar bilan ketib borar edim. G'.G'ulom Shum bola. "Qush uchsa – qanoti, odam yursa – oyog'i kuyadi" – bu ko'chma ma'noli ifoda. Izohi quyidagicha: Aslo chidab bo'lmaydigan darajada issiq, jazirama.

Xulosalar va amaliy tavsiyalar. Maqolada zoonim iboralar va boshqa frazeologik birliklarning tilimizdagi ahamiyati ochib berildi.



Ushbu iboralar nafaqat soʻzlar orqali hayvon obrazlarini ifodalaydi, balki inson xarakteri, his-tuygʻulari va ijtimoiy holatni koʻchma maʼnoda tasvirlaydi.

Har bir frazeologizm oʻzining barqarorligi, koʻchma maʼnoliligi va nutqda tayyor holatda ishlatilishi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, zoonim iboralar tilimizning boyligi va emotsionalligi yoritishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Rahmatullayev, Sh. Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1978.
2. Rahmatullayev, Sh. Oʻzbek frazeologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1966.
3. Hojiyev, A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.
4. Abdullayev, F. Oʻzbek tilida turgʻun soʻz birikmalari. – Toshkent: Fan, 1968.
5. Mahmudov, N. Oʻzbek tilining izohli lugʻati va frazeologiya masalalari. – Toshkent: Fan, 1980.
6. Tursunov, U., Muxtorov, J., Rahmatullayev, Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1992.
7. Saidova, M. Oʻzbek tilida zoonim frazeologizmlar. – Toshkent: Fan, 2005.
8. Abdullayev, S., & Abdullayev, O. (2025). oʻzbek va qoraqalpoq tillarida yangi terminlarning sohalarga doir taraqqiyoti. xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, 1(6), 185-190.
9. Abdullayev, O. (2022). OʻZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA VA MAISHIY SOHAGA DOIR ZAMONAVIY LEKSIKANING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(1), 130-133.
10. Abdullayev, S., & Abdullayev, O. (2023). OʻZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA IQTISODIYOT SOHASIGA DOIR ZAMONAVIY LEKSIKA. Talqin Va Tadqiqotlar, 1, 31.